



# GEOINFORMATIKA BO'YICHA YANGI MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI



## Geodeziya va kartografiya (geoinformatika)




Geoinformatika bo'yicha magistratura mutaxassisligi Tempus GE-UZ "Geoinformatika: O'zbekistonda barqaror rivojlanishga erishish" loyihasi asosida tashkil etildi. Mutaxassislik muvaffaqiyatli bo'lishi uchun loyiha doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ✓ Tegishli tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarining sohaga bo'lgan ehtiyoji "Ehtiyojlar tahlili" orqali o'rganildi va bu bo'yicha o'quv fanlari tanlab olindi;
- ✓ 4 ta oliy ta'lim muassasasining 8 nafardan o'qituvchilari Avstriya va Vengriya davlatlarining ilg'or universitetlarida malaka oshirib keldilar;
- ✓ Yevropa va milliy ta'lim standartlariga mos keladigan o'quv reja, fan dasturlari va o'quv qo'llanmalar yaratildi;
- ✓ Zamonaviy geodezik texnologiyalar va kompyuterlar xarid qilindi, laboratoriya xonalari ochildi;
- ✓ Hamkorlikdagi 4 ta oliy ta'lim muassasalari o'qitish jarayonida o'z hissasini qo'shadi.

### Mazkur magistratura o'qitiladigan mutaxassislik fanlari:

1. Geoaxborot tizimi va fani
2. Ma'lumot olish va integratsiyalash
3. Fazoviy tahlillar
4. Kartografiya va Geovizualizatsiya
5. Masofadan zondlash
6. Fazoviy ma'lumot tuzilmasi va modellari
7. Ma'lumotlar bazasi va arxitekturasi
8. Loyihani tashkil etish va boshqarish



### Hamkor universitetlar va tashkilotlar

Ushbu magistratura mutaxassisligi quyida nomlari qayd etilgan milliy va yevropa oliy ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarning hamkorligi ostida tashkil etildi. Bu hamkorlar magistratura kursida ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ham faol qatnashadilar.

#### O'zbekistondagi hamkorlar:

- ❖ Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya Instituti
- ❖ Toshkent Arxitektura Qurilish Instituti
- ❖ Qoraqalpoq Davlat Universiteti
- ❖ O'zbekiston Milliy Universiteti
- ❖ Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi

#### Yergeodezkadastr Davlat Qo'mitasining:

- Geodeziya va kartografiya milliy markazi
- Geoinformkadastr davlat unitar korxonasi

#### Evropa Ittifoqidagi hamkorlar:

- G'arbiy-Vengriya Universiteti, Vengriya
- Paris Lodron Universiteti, Avstriya
- Shvetsiya qirollik texnologiya Instituti, Shvetsiya
- Grinvich universiteti, Angliya

## Geoinformatika bo'yicha yangi magistratura mutaxassisligi uchun yaratilgan ta'lim muhiti va eng zamonaviy geodezik jihozlar



O'quv xonasi



Trimble® TX5 3D laserli skaneri



Trimble M3 Servo taxometri



Fotogrammetrik ish stansiyasi



GNSS rover-Trimble R



Laserli masofa o'lchagich